

TA'LIM MUASSASALARIDA ELEKTRON O'QUV ADABIYOTLARIDAN FOYDALANISH

Usmonova Mavludaxon Soyibjon qizi

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
Axborot texnologiyalari va matematika kafedrası o'qituvchisi*

Anotatsiya. Mamlakatimizda axborot va axborot faoliyatining turli javhalari to'g'risida qator hujjatlar e'lon qilingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 20-iyundagi Respublika aholisini axborot kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risidagi PQ-381 sonli qarorida ta'lim muassasalari o'quvchilari va aholining zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda muntazam ta'lim olishi va mustaqil ravishda ta'lim olishga ko'maklashish, yangi axborot texnologiyalari asosida aholiga axborot xizmati ko'rsatish, ta'lim muassasasi, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari, milliy madaniyat markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish asosiy vazifa etib belgilandi.

Kalit so'zlar:Elektron kutubxona, elektron ta'lim, animatsion dastur, pedagogik mahorat.

Ta'lim samaradorligini oshirishda elektron ta'lim resurslarining o'rni Mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohatlar, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi hamda axborotlashgan jamiyatga o'tish talablari ta'lim strategiyasini o'zgarishiga olib kelmoqda. Uzluksiz ta'lim olishning yangi shakllari, jumladan zamonaviy o'qitish texnologiyalariga asoslangan tarmoqli, axborotli, masofaviy va innovatsion ta'lim texnologiyalari vujudga keldi. Axborot-kommunikatsion texnologiyalarga asoslangan yangi ta'lim turlarining paydo bo'lishiga asosiy sabab, jamiyatning turli tabaqalariga mansub kishilarga bilim berish, ularning malakasini muntazam oshirib borish va qayta tayyorlash vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishda, sobiq ta'lim tizimining yillar davomida shakllangan an'anaviy usul va vositalarining imkoniyatlari chegaralanganligidadir.

Globalashuv asrida bir soha faoliyatini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ma'lumki, har qanday davlatning xalqaro miqyosda barqaror rivojlanishi va istiqbolib iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi omillar aynan ta'lim sohasi rivojlanishiga bevosita bog'liq.

Barcha sohalar qatori axborot-kutubxona faoliyati sohasini takomillashtirishga, bugungi kun talabi bilan tashkil etilayotgan axborot-resurs markazlarida xalqimizning kitobxonlik imkoniyatlarini har jihatdan kengaytirish, qiziqish va xohishlarini o'rganish, bu boradagi tajribalarni ommalashtirishga davlatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Mamlakatimizda axborot va axborot faoliyatining turli javhalari to'g'risida qator hujjatlar e'lon qilingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 20-iyundagi Respublika aholisini axborot kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risidagi PQ-381 sonli qarorida ta'lim muassasalari o'quvchilari va aholining zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda muntazam ta'lim olishi

va mustaqil ravishda ta'lim olishga ko'maklashish, yangi axborot texnologiyalari asosida aholiga axborot xizmati ko'rsatish, ta'lim muassasasi, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari, milliy madaniyat markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish asosiy vazifa etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 28-sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-191-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 28-dekabrdagi «ZiyoNET» axborot tarmog'ini yanada rivojlantirish to'g'risida»gi 282-sonli Qarorlariga muvofiq, Toshkent Pedagogika kolleji «ZiyoNet» axborot tarmog'iga ulangan.

Ta'lim samaradorligini oshirishda elektron ta'lim resurslarining o'rni Mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohatlar, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi hamda axborotlashgan jamiyatga o'tish talablari ta'lim strategiyasini o'zgarishiga olib kelmoqda. Uzlüksiz ta'lim olishning yangi shakllari, jumladan zamonaviy o'qitish texnologiyalariga asoslangan tarmoqli, axborotli, masofaviy va innovatsion ta'lim texnologiyalari vujudga keldi. Axborot-kommunikatsion texnologiyalarga asoslangan yangi ta'lim turlarining paydo bo'lishiga asosiy sabab, jamiyatning turli tabaqalariga mansub kishilarga bilim berish, ularning malakasini muntazam oshirib borish va qayta tayyorlash vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishda, sobiq ta'lim tizimining yillar davomida shakllangan an'anaviy usul va vositalarining imkoniyatlari chegaralanganligidadir. Bunday vaziyatda Oliy o'quv yurtlarining potensialiga tayangan holda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dars jarayoni samaradorligini oshirish hozirgi zamon pedagogikasining dolzarb masalasiga aylanib bormoqda. Texnika, texnologiya va ishlab chiqarishning jadal sur'atlar bilan rivojlanib borishi oliy ta'lim hamda akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ta'lim olayotgan talaba yoshlar oldiga shu rivojlanishga mos bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlarini taqozo qilmoqda. Talaba yoshlarga texnika va texnologiyalarning yangi yutuqlarini o'zlashtirish ko'nikmalarini hosil qilish uchun ularni o'qitish usullarini tubdan yangi pog'onaga qo'tarish zarurati davr talabi bo'lib qolmoqda. Bu muhim vazifani hal etishda kundalik turmushda jadal sur'atlar bilan kirib kelayotgan zamonaviy pedagogik va axborot — kommunikatsion texnologiyalar, elektron ta'lim resurslaridan keng foydalanish muhim rol o'ynashi muqarrardir.

Hozirgi kunda sinovdan o'tgan maxsus axborot vositalari: kompyuter texnikalari, audio va video vositalari qatoriga kelib qo'shilgan elektron ta'lim resurslari, virtual stendlar, animatsiyali dasturlar vositasida dars mashg'ulotlarini olib borish talabalar tomonidan dars mashg'ulotlarini o'zlashtirishlariga samarali natijalar berib borishi tayindir. Elektron ta'lim resurslari yordamida darslarni tashkil etish jarayoni, bunda talabalarning olayotgan bilimlarini na faqat eshitish, balki ko'rish sezgilari orqali ham qabul qilishlari va tushunchalarning g'oya va mazmunini chuqur anglab etishlariga samarali yordam beradi. Qator mualliflar

tomonidan turli elektron o'qitish vositalari yordamida mavzularning yoritilishni joriy etib borilayotganligi, bunda talabalarning bilim saviyalarining oshib borayotganligini bevosita ishonch hosil qilish mumkinki, bu usullarning yanada takomillashtirilishi, yuqori pog'onaga olib chiqish kabi zaruratlar oldindan ko'rib, shu yo'sinda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish har bir rahbar hamda pedagogning dolzab vazifasi bo'lishi talab etiladi.

Bizning fikrimizcha, elektron ta'lim vositalaridan foydalanishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish kerak bo'ladi:


- o'quv materiallarga qo'yiladigan uslubiy talabalarni ishlab chiqish;
- animatsion dasturlardan foydalanish davomiyligini 25–30 minutdan oshirmaslik;
- namoyish etilayotgan mavzuga doir tushunchalar o'qituvchi va talabalar tomonidan ikki tomonlama aloqa tarzida muhokama etib borilishi;
- namoyish etilib borilayotgan lavhalarning talaba tomonidan mustaqil ravishda qayta ishlab, yangi tushunchalarni shakllantirib borishiga erishish;
- o'qitish natijalarini baholash me'zonlarini aniqlash.

Ma'lumki, o'quv jarayonida qo'llaniladigan pedagogik va informatsion texnologiyalar bir necha turlarga bo'linib, ulardan eng muhimi — kompyuter texnikasi vositalari yordamida o'qitishdir. SHundan kelib chiqib, elektron darslik, virtual stendlarga qo'yilgan talablarni inobatga olgan holda, kimyo fanidan ma'ruzalar, laboratoriya ishlari, amaliy mashg'ulotlarni elektron variantda ishlab chiqib, foydalanish maqsadga muvofiqdir. SHu bois kimyo fanidan elementlar davriy sistemasini va atom tuzilishi mavzulariga oid virtual lavhalarni keltirish mumkin. Bu lavha elementlar davriy sistemasida barcha elementlarning tuzilishi animatsiya tarzida yaratilgan bo'lib, unda talaba har bir element atomining yadrosi hamda uning atrofidagi zarrachalarning joylashish tartibi, ularning harakati qonuniyatlarining fazoviy holatini ko'rib, yaqqol tasavvur hosil qilishi mumkin.

O'qituvchi faoliyatining tuzilishi

Pedagogik mahorat o'qituvchilar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta'lim – tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma'naviy – ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq-atvorni va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi va o'z kasbini rivojlantirib boruvchi **pedagogik faoliyatlar** tizimi to'g'risida ma'lumotlar beradi. Pedagogik mahorat o'qituvchilarning pedagogik faoliyati zamirida takomillashib boradi.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta'lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o'qituvchilar mehnati faoliyatidir. Bo'lajak o'qituvchilar o'z pedagogik faoliyati jarayonida faoliyatning quyidagi tarkibiy qismlarini bilishi lozim:



1-rasm. O'qituvchining faoliyatining tuzilishi

PEDAGOGIK JARAYONNING MOHIYATINI ANGLAMAGAN, BOLAGA NISBATAN CHUQUR HURMATDA BO'LMAGAN O'QITUVCHI TA'LIM-TARBIYA SAMARADORLIGI VA INSON KAMOLOTINI TA'MINLOVCHI FIKRGA EGA BO'LMAYDI. PEDAGOGIK JARAYONNING VAZIFASI BILIM BERISH, TARBIYALASH, RIVOJLANTIRISH BO'LIB, O'QITUVCHILARNING FAOLIYAT MEZONINI BEGILAB BERADI. O'QITUVCHILARNING FAOLIYATI **PEDAGOGIK JARAYONNING HARAKAT VOSITASIDIR** PEDAGOGIK JARAYONNING OB'EKTLLARI BO'LMISH TARBIYALANUVCHI INSONGA, O'QUVCHI VA O'QUVCHILAR GURUHIGA HAMDA ALOHIDA O'QUVCHIGA, PEDAGOGIK JARAYONNING SUB'EKTLLARI - OTA-ONALAR, O'QITUVCHILAR, TARBIYACHILAR, SINIF JAMOASI, PEDAGOGIK JAMOA MAS'ULDIRLAR VA ULAR JAMIYAT TALABLARI ASOSIDA TA'LIM VA TARBIYA BERISH FAOLIYATINI BAJARADILAR. O'QITUVCHINING PEDAGOGIK FAOLIYATIDA IJOBIY NATIJALARGA ERISHISHI, MEHNAT MALAKASINI, YA'NI EGALLAGAN BILIMLARINI O'ZINING HAYOTIY VA AMALIY FAOLIYATIDA NECHOG'LIK QO'LLAY BILISHI BILAN BELGILANADI.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar / Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
2. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan

- tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016-yil 7-dekabr / Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 48 b.
3. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. / Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b
 4. Elektron kitoblar: raqamli qurilmalar va qo'shimcha yangi texnologiyalar nashriyot sanoatining qiyofasini qanday o'zgartirmoqda", jild. 2012 yil, 26 № 4, 219-235 betlar. Grajek, S
 5. Begimqulov U.SH. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagogik ta'limni tashkil etish.// — pedagogik ta'lim» jur, № 1, 2004 – 25-25 betlar.
 6. Begimqulov U.SH. Multimediali o'quv-metodik majmualar va ularni tayyorlanishga bo'lgan talablar // J. Pedagogik ta'lim. – Tos'hkent, 2005. – № 1. – B. 19-21.
 7. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования [Текст]: учеб. пособие для студ. вузов / Е. С. Полат, М. Ю.Ухаркина, М. В. Моисеева, А. Е. Петров ; Под ред. Е. С. Полат. - 3-е изд., испр. и доп. - М. : Изд. центр "Академия", 2008.
 8. “Технические средства обучения и методика их использования” Г.М. Коджаспирова, К.В. Петров Москва издательский центр “Академия” 2008 г
 9. «Создание электронного учебника как интерактивно-мультимедийное приложение». Мурзабаева Айгуль Маратовна. 2013.
 10. Понятный самоучитель Excel 2013. — СПб.: Питер, 2014. — 128 с.: ил. - (Серия «Самоучитель»).
 11. To'raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari. T., “Fan”, 2006 y., 240 b.

Foydalanilgan internet resurslar

12. www.nuu.uz - Informatika o'qitish metodikasi kursidan distantsion kurs. O'zbekiston Milliy univrsiteti.
13. www.bitpro.ru/ITO/index.html -« Информационные технологии в образовании» konferentsiya sayti.
14. www.tepkom.ru/users/ddt/articles - Avtorlar maqolasi.
15. www.inf.1september.ru - Informatika gazetasi sayti.
16. www.ugatu.ac.ru – turli fanlardan elektron darsliklar, informatika fanidan test savollar majmuasi va boshqalar.
17. www.infomicer.net – Elektron darsliklar, entsiklopediyalar, multimedia materiallari va boshqalar.
18. www.istedod.uz – Respublika Prezidenti huzuridagi “Iste'dod” jamg'armasi portali.
19. www.e-darslar.net - O'zbek Internet foydalanuvchilari uchun onlayn, elektron darslar portali.
20. <https://www.youtube.com/watch?v=xWxUvgBYAjw>
21. <http://www.ref.uz>

-
22. <http://www.pedagog.uz>
 23. <http://www.lex.uz>
 24. <http://www.ziyonet.uz>